

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK TIZIM VA ILMIY BOSHQARUV MOHIYATI**

**G.F.Bahriiddinova**

**M.E.Haydarov**

Nizomiy nomidagi TDPU

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lif muassasalarida boshqarishning muhim jihatlari va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyati va ijtimoiy pedagogik jixatlar haqida fikr yuritildi.

**Tayanch iboralar:** metodologik yondashuv, umumiylit, universallit, differensiallit, mikromuhit, makromuhit.

Ko'pchilik olimlar, bizning mamlakatimizda ham, chet elda ham boshqarish – alo-hida soha bo'lib, ta'lif va tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida qarali-shi mumkin emas, degan xulosaga kelishdi.(B.V.Kraevskiy, B.T.Lixachev, YU.P. Sokolni-kov, V.A. Slastenin, I.P. Podlasiy, R.X. Djurayev, R. Ahliddinov, S.T. Turg'unov, S.A. Mad'yarova va b.) Pedagogik jarayonning mohiyati tizimli metodologik yondashuv asosidagina zamonaviy mualliflar tomonidan ochib berilmoqda. U pedagogik ob'ektlarni tizimlar sifatida qarashni taklif etadi, aynan: tarkibiy qismlarining tuzilishini, ular orasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash kabilarni o'zida jamlaydi. Bugungi kun pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasisiz boshqaruv muammolarining hal etilishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday yondashuvning joriy etilishi boshqaruvda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuvda ta'lif muassasasi tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xiz-mat qilayotgan murakkab tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda uning aloqalari va vositalarining mazmun va mohiyatiga ko'ra ob'ye ktni bir butun, yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Ta'lif muassasasini o'rganishda alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratib, o'lar o'rta sidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir tizim yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z hissasini qo'shadi.

Kengroq ma'noda tizimli yondashuv – bu falsafa metodologiyasi bilan tabiiy holdagi ilmiy tadqiqot metodlarning metodlari o'rta sidagi vaziyatni egallab turuvchi fan, ilmiy bilish nazariyasining metodologik asoslaridir. Tizimli yondashuv fan sifa-tida aniq bir yangi tushunchalar bermaydi, lekin ob'ye ktni o'rganishda o'ziga xos yaxlitlik, umumiylit, universallit, differensiallit kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya'ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

Universal tushunchalar apparati, abstraksiyaning yuqori darajasi, asosiy tamoyil-larning integrativ xususiyatlari – insonlarning turli sohalar bo'yicha tushunchalari, fikrlashi va dunyoqarashini o'rganishning samarali usuli sifatida tizimli yondashuvni qo'llash imkoniyatini yaratadi. Tizimli yondashuv yo'nalishidagi barcha bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi ixitiyoriy faoliyatni rejalshtirish va tashkil etishda, rahbarlik qilish, ya'ni rahbarlarning boshqaruv faoliyatida eng zaruriy shartlardan biri hisob-lanadi.

V.I. Bogoslovskiy tizimli yondashuvning tushunchalar apparati sifatida quyidagi tushunchalarni ajratib ko'rsatadi: *harakatlanish, tashkil etish, munosabat, tartibga solish, aloqa, muhit, mustaqil uyushmoq, tashkil topish, tashkiliy tu-zilish, boshqarish, chidamlilik, funksiyalar, yaxlitlilik, markazlashtirish, tizim*.

Tizimli yondashuvning asosiy tushunchasi tizim bo'lib, aloqa, munosabatlar, integratsiya, yaxlitlik, tashkil etuvchi qismlar kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Bu tizimning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, o'zaro ta'sir etuvchi qismlarining majmui yaxlit ob'yektni tashkil etadi.

Tizimli yondashuv yo'nalishida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ular quyidagi-larni o'z ichiga oladi:

Tizimlilik, yaxlitlik – bunday shakldagi tizimni komponentlar, o'zaro ta'sir etuvchi qismlar va bo'g'lnarning birikishini tashkil etadi va uning funksional vazifa-larini amalgaloshirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

Pedagogik tizimda tizimni tashkil etuvchi omillardan biri maqsad bo'lib, unga erishish uchun usul va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi.

Pedagogik tizim tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, uning o'zgarishi ichki zid-diyatlarga bog'liq bo'ladi.

Tizim ochiq bo'lganligi sababli tashqi muhit bilan ko'pgina kommunikatsiyalar orqali bog'liq bo'lib, muhitning munosabatlari tizimning harakatlanishi va rivojla-nishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Axborotlarning pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o'zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish usullari hisoblanadi.

Talab etilayotgan, mavjud bo'lgan va istiqbol tizimlar o'rtasidagi farqni bosh-qaruv jihatlari belgilaydi.

Pedagogik tizim birqancha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular mustaqil rivojlanadi va yaxlit boshqariladi. Pedagogik tizimni boshqarish, bir tomonidan, uning yaxlitligini saqlab qoladi, boshqa tomonidan, uning alohida tarkibiy qismlarining ta'sirini o'zgartirishga imkon beradi.

Maqsadlar pedagogik tizimning mazmunini belgilaydi, bu o'z navbatida uni amalgaloshirish uchun turli xil shakllar va usullarni nazarda tutadi. Pedagogik tizim muayyan ijtimoiy-pedagogik sharoitdagina xarakatda bo'ladi. Har qanday tizim kabi, pedagogik tizim erishilgan natijalar darajasi bilan ifodalanadi.

Pedagogik hodisalarning dialektik tabiatini, ularning yaxlitligini aks ettirish-da pedagogik tizimning optimal faoliyat olib borishi uchun uning tarkibiy qismlari zarur va etarli darajada ifodalanishi kerak.

Shu asosda ta'limga muassasasi pedagogik tizim sifatida *tizim yaratish omilla-ri, faoliyat yuritish sharoitlari, tarkibiy va funksional komponentlar* majmua-si sifatida namoyon bo'ladi. *Tizim yaratish omillari* maqsad va natijalar omillari; *faoliyat yuritish sharoitlari* ijtimoiy-pedagogik va vaqtinchalik shart-sharoitlar; *tarkibiy qismlar* boshqarish (pedagogik jamoa) va boshqariladigan (o'quvchilar jamoa-si) tizimlar, pedagogik faoliyatning mazmun, vosita, shakl va metodlari; *funktional komponentlar* pedagogik tahlil, maqsad qo'yish va rejalshtirish, tashkil etish, boshqa-rish, tartibga solish bilan ifodalanadi.

Ta'limga muassasasi pedagogik tizim va ilmiy boshqaruv ob'yekti sifatida qarash shuni ko'rsatadi, ta'limga tashkilotchilarining, mansabdar shaxslarning, o'qituvchilar va o'quvchilarining boshqaruv faoliyati maqsadlarni ishlab chiqish va natijalarga erishishga, pedagogik va o'quvchilar jamoalarini shakllantirish uchun sharoit yaratishga, ta'limga ishlarining mazmunini tanlab olish va uning turli vosita, shakl va metodlaridan foydalanishga teng yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu holda, boshqarish pedagogik tizimning maqsadga muvofiqligini saqlab qoladi va uning komponentlarining yangilanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Istalgan ta'lif muassasi pedagogik tizimi uchun nafaqat uning mavjud tarkibiy qismlari orasidagi aniq aloqa va munosabatlari, balki muhit bilan uzlusiz birligi, tizim o'zining bir-butunligini namoyon etadigan o'zaro munosabatlari bilan xarakterli-dir. Bu bilan bog'liqlikda boshqaruv tizimi mikro va makro muhit bilan tig'iz bog'lan-gan. Mikromuhit sifatida ta'lif muassasasi joylashgan muhit(shahar, tuman, mahalla), makromuhit sifatida butun jamiyat yuzaga chiqadi.

Boshqaruv tizimi – bu jamoa hayoti obrazi, uning psixologik iqlimi sifatida integrativ xarakterga ega bo'luvchi va boshqaruvning asosiy tarkibiy qismlari (sub'yeqt-lar, maqsad, mazmun va faoliyat usullari, munosabat)ning o'zaro harakati sharoitida qator vazifalarni bajaruvchi bir butun ijtimoiy organizm.

Zamonaviy ta'lif muassasasini boshqarish murakkab pedagogik tizim sifatida rahbardan boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish va uni rivojlanish rejimiga o'tkazish uchun ilmiy yondashuvni talab etadi. Buning uchun qo'yidagilarni aniq belgilab olish kerak:

ta'lif muassasasining turi va maqsadi;

axborot ta'minoti (manfaatlar, o'quvchilarining imkoniyatlari, ularning ota-onalarining so'rovnamalari);

kadrlar, moddiy-texnik, psixologik shart-sharoitlar (aniqlangan ehtiyojlarni qondirish uchun);

o'quv rejasining shaxsiy varianti;

o'qitish tizimi (individual, sinf-dars, ma'ruza va amaliy, turli bosqichdagi va o'quvchilar guruhlari uchun sikllar bo'yicha patoklar va boshqalar);

o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish tartibi (besh yoki olti kunlik, kunning birinchi yoki ikkinchi yarmi);

ta'lif muassasasi qo'yan maqsadga erishish uchun ustuvor sharoitlar (xodimlar, moddiy va texnik, moliyaviy, ilmiy-uslubiy, ijtimoiy va psixologik).

Boshqaruv tizimini maqsadga muvofiq yaratish quyidagi omillar bilan shartlangan: boshqaruv faoliyati sub'yektlari kuchlarini integratsiyalash, pedagogik jarayon tarkibiy qismlari(maqsadli, mazmunli, tashkiliy-faoliyatli, baho-natijali)ning o'zaro aloqasini mustahkamlash;

boshqaruvda tabiiy va ijtimoiy muhitni jalg etish va o'zlashtirishni hisobga olish uchun imkoniyat darajasini o'stirish;

qo'yilgan boshqaruv vazifalari muvafaqiyatini ta'minlashda boshqaruvni amalgalashuvchi metodlar, mazmundagi uzlusizlik va dialektilikka erishish uchun pedagogik jamoa kuchi va vaqtini tejash;

jamoadada ish va shaxslararo munosabatlarni insonparvarlashtirish, individual-ligini namoyon etuvchi, ularning o'z ijodiy dunyoqarashini oshirishga imkon beradigan o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar shaxsini o'zini-o'zi realizatsiyalashi va o'zini-o'zi namoyon etishi uchun sharoit yaratish.

Pedagogik tizimni amalgalashuvchi ijtimoiy-pedagogik va vaqt bilan bog'liq shart-sharoitlari.

Ta'lif muassasasi boshqaruv tizimi yuqorida berilmaydi, aksincha pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari – *rahbar xodimlar, ma'muriy xodimlar, o'qituvchi-lar, bolalar, ota-onalarning kuchlari* bilan yaratiladi. Ularning harakati jarayonida uning maqsad va vazifalari shakllanadi, ularni amalgalashuvchi yo'llari aniqlanadi, faoliyat shakllantiriladi. Ta'lif muassasasi boshqaruv tizimi turg'un emas, aksincha dinamik hodisadir. Uni samarali amalgalashuvchi oshirish uchun uning rivojlanish mexanizmlari va o'ziga xosliklarini bilish zarur.

Tizimni yaratish har doim harakatlarni yaxlitlikka, uning tarkibiy qismlarini tartiblilikka yo'naltirish bilan bog'liq. SHuning uchun boshqaruv tizimining shakllani-shi har doim

integratsiya jarayonidir. Integratsiya dezintegratsiyalanishga, tizim turli tarkibiy qismlarining mustaqilligini oshib borishida, ular orasidagi o'zaro aloqalar-ning buzilishida ma'lum bo'ladi. Integratsiya va dezintegratsiya jarayonlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etish boshqaruvin tizimi rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 yil 3 iyun' kuni Andijon viloyati faollari bilan uchirashuvidagi nutqi // Xalq so'zi 2017. 04 iyun'.
2. Karimov I. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi // Toshkent. O'zbekiston. 2005. – B. 306-369.
3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. (Asqar Maxkam tarjimasi) // Toshkent: SHarq, 2001. – B. 384.
4. Zununov A.Pedagogika tarixi // Toshkent. Darslik. – 2004. B. 21.
5. Xaydarov M.E Pedagogik tizimni boshqarish. Darslik -2010. 27/b